

XX ASR BOSHIDAGI O‘ZBEK TEATRLARINING IJTIMOIY - BADIY XUSUSIYATLARI

Istamova Shahzoda Islom qizi

Termiz Davlat Universiteti Milliy libos va san’at fakulteti

Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish

hamda boshqarish yo‘nalishi 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek milliy teatrining taraqqiy etishiga ta’sir ko‘rsatgan diniy mutaassiblar va ularning harakatlari, xalqni ma’rifatli qilish va ularning ongini oshirishni o‘zlariga maqsad qilgan jadidlar xarakati va teatr san’atining milliy xususiyatlari haqida keng miqyosdagi ma’lumotlar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: Maxmudxo‘ja Bexbudiy, “Padarkush” dramasi, teatr san’ati, spektakl, jadidlar, Teatr bu-ibratxonadir, etnomadaniyat, targ‘ibot vositasi, teatr xususiyatlari.

KIRISH: XIX asrning oxirlari va XX asrning birinchi choragida axoli orasida islom dini, shariat qoidalari ruhoniylar ta’sirining kuchli ekanligi, milliy madaniyat va qadriyatlarning xalq e’tiqodiga aylanganligi mustamlakachilik siyosatida bunga jiddiy qarshilik bo‘lishini taqozo etadi. Din ulamolarining Rossiya imperiyasiga Mqarshi ozodlik kurashlari va ularning mustamlakachilarga nisbatan olib borgan munosabatlaridan so‘ng, Rossiya imperiyasining Turkistondagi islom dini va o‘quv yurtlariga nisbatan qat’iy siyosat olib borishiga sabab bo‘ladi. Muayyan xalqning o‘zligini yo‘q qilish uchun avvalo, uning dini, milliy urf-odat va qadriyatlariga tajovuz qilingani kabi Rossiya imperiyasi ham xalq milliy qadriyatlarini mensimaslik, ularni oyoq osti qilish siyosatini olib borishadi. Turkiston ziyolilari (jadidlar) esa xalqni ogoh qilish uchun targ‘ibot ishlarida ta’lim, nashrlar va teatrlardan keng foydalanadilar.

O‘zbek milliy teatrining taraqqiy etishi ana shunday ziddiyatli va murakkab davrda kuchli ijtimoiy – siyosiy ehtiyoj sifatida paydo bo‘ladi. Uning asosiy maqsadi – xalqni ma’rifatli qilish, madaniyatini oshirish edi. Ushbu g‘oyalarni maqsad qilgan jadidlar teatr san’atidan juda keng miqyosda foydalanadilar.

ASOSIY QISM: Mahmudxo‘ja Behbudiy: “Teatr va’z va tanbex qilguvchi hamda zararli odat, urf va tamoyillarni, qabih va zararli odatlarni ko‘rsatuvchi” vosita ekanligini aytib o‘tadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy teatrga yana shunday ta’rif beradi: “Teatr bu – ibratxonadir“.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning 1913-yilda nashr etilgan “Padarkush” dramasi o‘zbek milliy teatrining tug‘ilish belgisidir. Ushbu asarda Behbudiy asosiy masalani xalqni ziyoli qilish, ma’rifatni targ‘ib qilish va shu bilan birga ovro‘pacha madaniyatni yoshlar tarbiyasidagi salbiy xolatlarni paydo bo‘lishiga sabab bo‘lganligi haqida millatni ogohlantirishga qaratadilar. Asar 1911-yilda yozilib, 1913-yilda nashr qilinadi. Ilk bor 1914-yil Samarqandda keyin esa Kolizey teatri binosida sahnalashtiriladi. Bu spektakl nafaqat o‘zbek teatrining birinchi spektakli balki jadidlarning ijtimoiy-siyosiy maqsadini teran va aniq ifodalaganligi bilan ahamiyatli bo‘ladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy esajadidlarning g‘oyaviy rahnamosiga aylanadi. Dramada kitob o‘qimagan (ma’rifatsiz) bolaning maishatga berilishi oqibatida uyiga hamtovoqlarini o‘g‘irlikka boshlab kelishi natijasida yuz bergan fojega ko‘rsatiladi. Bu orqali muallif milliy axloqiy tarbiyaga zid harakatlar ochiqdan ochiq jamiyatimizga kirib kelishi, oqu-qorani tanimagan yoshlarning ongini zaxaralashi ochib berilgan. Behbudiy o‘z maqsadini asarining oxirida ziyoli bir inson tilidan ochiq bayon etadi: “ bizlarni xonavayron, bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaxolatdur, bevatanlik, darbadarlik, faqir va zarurat, xo‘rliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi , natijasidur “deydi. Teatrlarda xalq turmushini axshilashga to‘sqinlik qiladigan xar qanday udum, marosim aks etgan tomoshalar sahnalashtirila boshlaydi. Shu jumladan to‘y va undagi isrofgarchiliklarni o‘zida aks ettirgan Xoji Muin va Nusratilla ibn Qudratullaxo‘jayevning “To‘y” pyesasi ham sahnalashtiriladi.

To‘y - davlatmand kishilarning o‘z boyligi bilan maqtanib, obro‘ orttirish vositasiga aylanib qolganligi fojealari aks etgan pyesadir.

Jadid teatrida xalq etnomadaniyati, xususan an‘anaviy teatr san‘ati unsurlari, xalq og‘zaki ijodining ta‘siri sezilarli bo‘ladi. Xar bir qahramon va u olib chiqadigan mavzu zamirida mustamlakachilik tuzumining asl yuzlari oshkor qilinar edi. Ayniqsa komediya janridagi asarlar katta ahamiyatga ega bo‘ladi. XX asr siyosiy voqealarining deyarli barchasi milliy sahnalashtirilgan teatrlarda o‘z aksini topgan edi. O‘tgan asr 20-yillarida jadidlarning “Turkistonni savodli va ma‘rifatli qilish, to‘q va farovon, birinchi navbatda mustaqillikka erishish maqsadi” ni teatr san‘atida targ‘ib qilish kuchayib boradi. O‘zligini bilmagan, milliy qadriyatlarini anglamagan xalqqa bu g‘oyani singdirish qiyin ekanligi his qilgan jadidlar sahnada tariximizga murojaat qilishga e‘tiborlarini qaratdilar. Shunday bir tahlikali zamonda Abdurauf Fitratning 1919- yilda yaratilgan “Temur sag‘anasi” asari mustamlakachilarga qaqshatgich zarba bo‘ldi desam adashmagan bo‘laman. Ushbu pyesada Amir Temurning “ne bo‘ldik bir zamonlarning sharafli va jasur bir millatning avlodlari boshqa bir millatning zulmi ostida qolmish.... sizlardan talab etaman, o‘lkani tuzatingiz, avlodlarimning hur yashamoqliklarini ta‘min etingiz. Agar bunday qilmasangiz, o‘lkamiz buyuk bir mozorlik holatiga keladi ” degan tahlikali murojaati ayniqsa juda e‘tiborga molikdir. Bunday mavzudaga spektakllar ma‘lum kamchiliklarga ega bo‘lsada, ammo tomoshabinga o‘z ta‘sirini qisman bo‘lsa ham o‘tqaza olgan desam aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Jadidlar yangi ovro‘pacha shakldagi teatr qonuniyatlarini ilhaq bo‘lib, pog‘onama – pog‘ona egallay boradilar.

XULOSA: Mustamlakachilarning eskicha fikr va qarashlari singdirilgan g‘oyalarga, eskicha qarashlar, mutaassiblik va jaholatga qarshi kurashishga qat‘iy bel bog‘lagan jadidlar va ma‘rifatparvarlar mana necha yildir kim o‘z maqsadlariga yetishgan deb bemalol ayta olishimiz mumkin. Ma‘rifatparvar va ziyolilarimizning tashabbuslariga ko‘ra yangi tipdagi maktablar, matbuot va eng muhimi, yozma dramaturgiya, teatr yuzaga keldi. Ma‘rifat uchun birgina maktab emas, zamon va dunyoda bo‘ladigan voqealar, millat va vatanning ahvolidan xabardor qiladigan bir

oyna kerak edi. Shu oynada xalq, millat o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'rsin. XX asr boshlarida o'zbek professional teatri ham ommaviy sahnalarga murojaat qilib, tomosha san'atlari sahnadan – ko'chalar, maydonlar, xiyobonlarga chiqdi.. Diniy mutaassiblik qarash egalari bo'lgan mustamlakachilarning har qanday tarbiyasiz va ma'rifatsiz fikrlari, ularning shu boradagi qarashlari bizning ma'rifatparvar ziyolilarimiz tomonidan ilgari surilgan ilg'or qarshlar, yangicha usuldagi maktablarning ochilishi, matbuot, teatrlar, va asosiy kuchga ega bo'lgan asarlar yaratilishi – bularning barchasi kelajagimizning poydevori mustahkamligidan va shu yo'sinda davom etishimizdan dalolat beradi. Milliy teatr va kino san'atining poetikasi, kuchli milliy-ma'naviy sarchashmalardan qonib, kurtak otdi. Bir tomondan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mannon Uyg'ur, Abror Hidoyatov va boshqa bir qator ulkan ijodkorlar badiiy – estetik g'oyalari, ijodiy tajribalari zamirida shakllandi va taraqqiy topdi. Yuqorida keltirib o'tgan barcha fikrlarimiz buning isbotidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *N.G'.Karimova (2015)O'zbekiston teatr va kino san'atining rivojlanish jarayonlari.*
2. *Shermuxammedov C.Ijtimoiy taraqqiyot va san'at, teatr ma'naviyatining o'zaro ta'siri.-Farg'ona: 1999.-7 b.*
3. *Mannopov,C.(1852). Xodji Abdulaziz Abdurasulov (1852-1936).*
4. *Abdusattorov,A.About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments.International Journal of Economics,2(11),28-30*
5. *O.Q.Tojiboyeva (2010-2015)San'atshunoslik instituti. Toshkent: "SAN'AT"jurnali,2015-240 b.*